Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 37

TIL O‘QITISH METODIKASI VA RAQAMLI PEDAGOGIKA

CLIL yondashuvi asosida ingliz tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga doir xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tahlili.

Mahliyo Yuldasheva*

ANNOTATSIYA

Ushbu tesizda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi asosida ingliz tili darslarida o‘quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi-CLIL yondashuvining til va mazmun integratsiyasi orqali kreativ fikrlashni rivojlantirishning imkoniyatlarini aniqlash hamda uning kreativ topshiriqlarni tashkil etishdagi metodik ahamiyati yoritiladi. Material sifatida xalqaro ilmiy manbalar va mahlliy tadqiqotlar ,PISA hisobotlari olindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, CLIL yondashuvining 4C tamoyili asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarning kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularning muammoga noodatiy yechim topish imkoniyatini yaratadi.Shuningdek, PISA doirasida kreativ fikrlashni xalqaro baholashdagi vazifasi va O‘zbekiston o‘quvchilarining natijalari tahlil qilinib, ingliz tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning dolzarbligi asoslanadi. Tadqiqot jarayonida CLIL metodikasi orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish til va mazmunni bir vaqtda birlashtirgan kognitiv-kommunikativ ko‘nikmalarga asoslangan ochiq kreativ topshiriqlar tizmini tashkil etishni talab qiladi

Kalit so‘zlar

CLIL, kreativ fikrlash, til va mazmun integratsiyasi, ingliz tili, PISA, kreativ topshiriqlar

DOI: 10.5281/zenodo.23278700

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida chet tilini o‘qitish nafaqat grammatik va leksik bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi. Balki, o‘quvchilarning kognitiv salohiyatini xususan kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda CLIL yondashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda. CLIL yondashuvi orqali o‘quvchilar tilni bilish va fikrlash vositasi sifatida qo‘llaydi. Bugungi davrda CLILning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi vazifalarini ilmiy asoslash dolzarb hisoblanmoqda.

CLILning nazariy asoslarini anglash uchun uning kelib chiqish tarixi , tamoyillari va asosiy tushunchalariga to‘xtalish zarur.Bu atama 1994-yilda finlyandiyalik olim Devid Marsh tomonidan ilmiy muomilaga kiritilib, “chet tilidan ikki tomonlama ta’lim maqsadlarni amalga oshirishdan foydalanish” deb izoh bergan[1]. Mazkur yondashuv til bilan birgalikda mazmunni teng vaqtda o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llashni nazarda tutadi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot materiali sifatida xalqaro ilmiy manbalar , PISA hisobotlari va mahalliy tadqiqotlardan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy, kontent-tahlil va umumlashtiruvchi usullardan foydalanildi. Xalqaro miqyosda Marsh [1],Dalton-Puffer [2],Martinez Serrano[3], Mehisto va Marsh [4], Coyle [5], Yermilova [6] va boshqalar [7] , ishlaridan foydalanildi.Mahalliy tadqiqotchilar Qarshiyeva [8], Abidova va Ahmedova [9] ishlari o‘rganildi.Shunigdek PISA natijalari OECD [10] tashkiloti hisoboti asosida tahlil qilindi.

Natijalar va muhokamalar

CLIL va kreativlik o‘rtasida empirik tadqiqotlar olib borilgan.Tadqiqotlar shuni ko ‘rsatadiki, CLIL muhitida o ‘quvchilarning kognitiv faolligi, muammolarga turli nuqtai nazradan qaray olish va nooadatiy yechimlar taklif berish ko‘nikmalari oshganini ko ‘rsatib bermoqda.Xususan Coyle va boshqa olimlar CLIL metodologiyasining to‘rtta asosiy tamoyili mavjud ekanligini ta’kidlashgan va ular quyidagilar [5]:

Content(Mazmun)- o‘quv faniga oid bilim, tushuncha va ko‘nikmalar. Bu tamoyilda o‘quvchi nimani o‘rganadi degan savolga javob beradi.

Communication (Muloqot)- o‘quvchi mazmunni qanday ifodalaydi. Bu bosqichda asosan til o‘rganish vositalariga tayanadi.

Cognition (Fikrlash)- fikrlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Culture (Madaniyat)- o‘zi va boshqa madaniyatni anglash va madaniyatlararo tushunish.

Ushbu model ichidagi Cognition (Fikrlash) bevosita taksonomiyaning yuqori bosqichlarini — tahlil, sintez va kreativ ijodkorlikni faollashtiradi.Bundan tashqari ushbu yondashuv 2ta komponentni birlashtiradi. Content (Mazmun) tabiat,tarix yoki geografiyaga oid bilimlarni umumlashtiradi va Language (Til) esa ushbu bilimlarni ingliz tilida ifodalash,tushunish hamda tahlil qilishni o‘rgatadi. Ingliz tili darsida CLIL yondashuvi yangi so‘zlarni yodlash yoki o‘rgatish emas ,balki til orqali fikrlash , misollar keltirish va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi.

CLIL va kreativ fikrlashga doir ilmiy tadqiqotlar xalqaro va mahalliy darajada tadbiq qilingan. Nazariy jihatdan olib qaraganimizda, tilni fikrlash vositasi sifatida qo‘llashni C.Dalton-Puffer maqolasida ko‘rsatib o‘tgan[2].O’quvchilarga savol berish, bahslashish hamda gipoteza ilgari surish orqali fikrlashda tildan vosita sifatida foydalangan . Muallifning fikricha CLIL o‘quvchilari LOTS (Lower-order thinking skills)dan HOTS (Higher-order thinking skills)ga tezroq o‘tishini ta’kidlagan.Ushbu tadqiqotda CDF (Kognitiv Diskurs Funksiyalar) yordamida o‘quvchilarda kreativlik tanlov va kutilmaganlik qobiliyatlari qay darajada rivojlanishi o‘rganilgan . Yakuniy xulosada CDF ga asoslangan topshiriqlar yordamida o‘quvchilarda kreativlik qobiliyati sezilarli oshgan va ular yangi g’oyalar yaratish , muammolarga muqobil yechimlarni taklif qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan.

Martinez Serrano tomonidan yozilga kitobda CLIL yondashuvida kreativlikni rivojlantirish strategiyalari bayon etilgan[3]. Muallif kreativlikni rivojlantirishda dialog asosida o‘rganish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish hamda muammolarga yechim topish kabi strategiyalarni sanab o‘tgan.Tadqiqot yakuni bo‘yicha ushbu strategiyalar CLILning til va mazmun integratsiyasi tamoyili bilan bog’liq bo‘lib, o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini sezilarli oshirgani ta’kidlangan.

P.Mahisto, D.Marsh hamda M.J.Frigols tomonidan tayyorlangan “Uncovering CLIL” qo‘llanmasida rolli o‘yinlar , loyiha va ochiq topshiriqlar kreativlikni rag’batlantirishini bayon etishgan[4].

Qozog’iztonda o ‘tkazilgan tadqiqotda FILA jadvali (Focus ,Information,Learn,Action plan) dan CLIL yondashuvi bilan qo‘llanilganda o‘quvchilar kreativ fikrlashiga ta’siri o‘rganilgan[7]. Unda ushbu jadvaldan foydalangan o‘quvchilar yangi g’oyalar yaratish va muammolarga innovatsion yechimlar topish qobiliyatini ko‘rsatgan.

Mamlakatimizda ham ushbu mavzuga doir bir nechta tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, CLIL va kreativlik o‘rtasida bog’liklar ifodalangan. Xususan , Rohatoy Abidova va O‘g’iljon Ahmedova tomonidan yozilgan ish xalqaro seminarlarda taqdim etilgan [9]. Ushbu maqolada kreativ fikrlashni rivojlantirishda CLIL hamda loyihaviy ta’lim masalalari ko‘rib chiqilgan.Ushbu yondashuvlarni fanga integratsiya qilish orqali o‘quvchilar muammolarga kreativ yechim topishlari bayon etilgan. Sarvinoz Qarshiyevaning CLIL yondashuvi orqali o‘quvchilar fanga oid tushunchalarni o ‘zlashtiribgina qolmay balki ulardan xorijiy tilda erkin gapira olishlarini hamda muloqot, ijodiy fikrlash bilan birgalikda tanqidiy fikrlashni ham rivojlantirishini bayon etgan[8].

Bugungi kunda kreativ fikrlashni rivojlantirish ta’lim tizimida xalqaro darajada e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda ham bu yo‘nalish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, O‘zbekistonning kreativ fikrlash doirasidagi xalqaro baholashlarda ishtiroki va tahlillaridan ko‘rsak bo‘ladi. Xususan , PISA 2022 xalqaro tadqiqot jarayonlarida O‘zbekistonlik 15-yoshli o‘quvchilarn qatnashgan bo‘lib , ulardagi kreativ fikrlash qobiliyatining o‘rtacha ko‘rsatgichi 14 ballni tashkil etgan[10]. Natijalar maktablarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik muhitning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ulardan olingan

so‘rovnomalarda 74% o ‘quvchilar topshiriqlarni bajarishda kreativ yechim berish uchun yetarli vaqt berilganini bildirgan.O‘quvchilarning 77% esa o‘qituvchilar o‘quvchilarning kreativligini qo‘llab quvvatlashini ko‘rsatgan. Bu raqamlar maktablarda kreativ fikrlash uchun sharoit mavjud ekanligini ko‘rsatadi . Biroq natijalarni yanada yuqori qilish uchun o‘quvchilarni kreativ yondashuvga asoslangan topshiriqlar tizimini takomillashtirish va bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, CLIL yondashuvi asosida ingliz tili fanini o‘rganishda kreativ fikrlashni rivojlantirish mazmun va tilni birlashtirgan holda kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarga asoslangan ochiq kreativ topshiriqlar tizimini ishlab chiqish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. PISA natijalari maktablarda kreativ muhit yaratish muhimligini ko‘rsatdi.Shu bois o‘quvchilar uchun kreativ muhit yaratish va o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Dalton-Puffer, C. A construct of cognitive discourse functions for conceptualising content-language integration in CLIL and multilingual education / C. Dalton-Puffer // European Journal of Applied Linguistics. – 2013. – Vol. 1, № 2. – P. 216–253.

[2] Llinares, A. Applied Linguistics Perspectives on CLIL / A. Llinares, T. Morton. – Amsterdam : John Benjamins, 2017. – 313 p.

[3] Martinez Serrano, M. C. Creative strategies in CLIL: Dialogic learning, critical thinking, and problem-solving / M. C. Martinez

[4] Serrano // CLIL in Higher Education. – Cham : Springer, 2022. – P. 145–162.

[5] Mehisto, P. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education / P. Mehisto, D.

[6] Marsh, M. J. Frigols. – Oxford : Macmillan Education, 2008. – 240 p.

[7] OECD. PISA Results 2022. Volume III: Factsheets: Uzbekistan. – Paris : OECD, 2024.

[8] Qarshiyeva, S. U. CLIL metodining O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilishi / S. U. Qarshiyeva // Kasb-hunar ta’limi. – 2025. –

[9] № 8. – B. 155-161.

[10] Yermilova, Y. How Can Creative Thinking Be Developed Through The Analysis Of The FILA Chart Using The CLIL Approach

[11] In STEAM Lessons / Y. Yermilova, Y. Shakan, A. Jumagaliyev, N. Saburov, G. Ar